

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH**

**Akbarova Shakarxon Abdulhayevna**

*Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumani*

*15-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritadi. O‘quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to‘g‘ri o‘qish, so‘z boyligini oshirish, keng fikrlashga o‘rgatish, nutqini, ongini rivojlantirish kabi bir qator xususiyatlarni o‘rganishda ona tili va o‘qish savodxonligi darsini to‘g‘ri tashkil eta bilish haqida qarashlar ilgari surilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *shaxs, ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so‘z, innovatsiya, ijodkorlik, erkin fikrlilik, interfaol metodlar, nutq madaniyati, dars samaradorligi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday deydi: “Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta‘lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak”. Ma‘lumki, Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda asosiy e‘tibor o‘quvchida tilga doir to‘rt ko‘nikma: o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. [1]

Inson hech qachon o‘qib-o‘rganishdan, izlanishdan va ilm olishdan charchamasligi, agarda bola bilimni boshlang‘ich sinfda mukammal egallasa, u vaqti kelib kelajakda foyda berishini anglab yetishi kerak. Bu haqida buyuk bobokalonimiz Abdulla Avloniy ham bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga urg‘u beradi: „Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarar, madaniyat-ma‘rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe‘llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilar. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, maslahatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmgga bog‘liqdur”[2].

Ta‘lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya‘ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo‘nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e‘tiborda bo‘lishi lozim. O‘quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to‘g‘ri o‘qish, so‘z boyligini oshirish, keng fikrlashga o‘rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o‘rganishda ona tili va o‘qish savodxonligini to‘g‘ri tashkil eta bilish lozim. Fikrini o‘stirish, fikrlashga o‘rgatish, kelajakka sog‘lom fikrli bolani

tarbiyalash ona tili va o'qish savodxonligining asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bola fikrining kengayishida sodda so'zlardan murakkab so'zlarga o'tib borishi yosh xususiyatlariga moslab davlat ta'lim standartlari asosida joylanganligi o'ta muhimdir. Darslarni to'g'ri va samarali tashkil qila olish o'qish samaradorligini oshiradi, ma'naviy ozuqa olishning yana bir yo'li hamdir. oshlang'ich sinflarda darslarni tashkil etishda umumiy o'rta ta'lim maktab-larida bir necha usullardan foydalaniladi. Ammo, ularning tuzilishi asosan darsdan ko'zlangan maqsadga bog'liq. Pedagogik nuqtai nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan hamkorlikda ishlash mazmunining takroriy umumlashtiruvchi dars tuzilishida, birinchidan, darsning tashkiliy qismi, ikkichidan, darsning maqsad va vazifalarini belgilab olish, uchinchidan, o'quv materiallarini umumlashtirish va tizimlashtirish, to'rtinchidan esa dars yakuni va uyga vazifalarga ahamiyat berish zarur. Boshlang'ich sinf darslarini tashkil etishning murakkab jihati shundaki, unda o'quv materiallar aniq belgilab olinishi, asosiy g'oya, tushuncha, qoida, unga mos mashq topshiriqlarini ajratib olish lozim. Qaytarish jarayonida darsning tarbiyaviy jihatiga e'tibor kuchaytiriladi. Bunda o'quv materiallari ko'proq qiziqarli hodisa, voqea va dalillar bilan bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda pedagogik hamkorlikning mazmunini tizimlashtirish va umumlashtirish darsining o'ziga xos hususiyatlaridan biri shundaki, o'qituvchining o'zi tushunib, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqaradi. Asosan har bir o'quv predmetining materiallari boblarga, qismlarga, bo'laklarga va alohida mavzularga bo'lib o'rganiladi. Umumlashtiruvchi darslarni esa tarkibiy qismlarga bo'lib, o'rganilgan materiallarni umumlashtirishga, ular o'rtasidagi aloqadorlik va yaxlitlikni anglab yetishga yordam beradi. Bundan ko'rinib turibdiki o'quvchilarda idrok, tasavvur, mantiqiy, dunyoqarashi kengayadi, murakkab topshiriqlarni bajara olish ko'nikmalari rivojlanadi. Boshlang'ich sinf darslarini to'g'ri tashkil etishda pedagogik maqsad va vazifalarni chuqur tushungan holda didaktik qoidalarga va darsning asosiy vazifalariga rioya qilib, har bir dars jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishga qaratish asosiy o'rinni egallaydi.

2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida keltirilgan "Rassomlar bahsi" hikoyasini ko'rib chiqamiz:

Rassomlar bahsi

Qohira shahrida dunyoga dong'i ketgan ikkita rassom yashar edi. Ikkisi ham o'zini yurtning eng yaxshi rassomi deb bilardi. Kunlarning birida ular bahs boylabdi. Yurtning eng yaxshi musavviri kim ekaniga aniqlik kiritmoqchi bo'lishibdi. Bir donishmand kishini hakam qilishibdi. So'ng rassomlar uch kun ichida bittadan surat chizishib hakamning oldiga keltirishibdi. Dastlab birinchi rassom chizgan surati ustidagi pardani olibdi. Suratda bir bosh uzum o'ta mahorat bilan, yorqin ranglarda tasvirlangandi. Uzum barglari esa shabadada qimirlagandek tuyilardi. Hatto bir qush uchib kelib "uzum"ga tumshuq uribdi. Buni ko'rib yig'ilganlar musavvirning mahoratiga qoyil qolishibdi. So'ngra ikkinchi rassom chizgan suratini ko'rsatibdi. Biroq surat ustidagi



pardani olishga **shoshmabdi**. Birinchi rassomning esa sabri yetmapti, pardani olish uchun qo‘lini suratga cho‘zibdi. Buni **qarangki**, rassomning qo‘llari qog‘ozga urilibdi. Aslida, parda ham surat ekan! Shunda hakam debdi: – Bu bahsda ikkinchi rassom g‘olib bo‘ldi. Negaki, birinchi musavvir faqat **qushni** alday oldi, **ikkinchisi** esa mahoratli rassomni ham aldadi.

“Gulxan” jurnalidan

Hikoya birinchi o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi va o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Rassomlar qayerlik edi?
2. Rassomlar nega bahs boylashadi?
3. Sizningcha, hakam adolatli qaror chiqardimi?
4. Siz qaysi suratni yaxshiroq deb hisoblaysiz?
5. Rassomlardan birining o‘rnida bo‘lsangiz, qanday surat chizar edingiz?
6. Sizningcha, rasm qanday chizilishi kerak?

Savollarga javob berib bo‘lingandan so‘ng, hikoya o‘quvchilar tomonidan mustaqil birma-bir “zanjir” usulida o‘qib chiqiladi, hikoyani o‘qish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarda kuzatilayotgan xatò va kamchiliklarni tekshirib turadi, o‘quvchilarda kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Keyin hikoya haqida, undagi fikrlar to‘g‘risida o‘quvchilarning o‘z fikrlari tinglanadi, so‘ngra keyingi topshiriqda aytilganidek: “Rassomlar bahsi” matnida ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inga ajratib yozing” Namuna: so‘ng-ra, ... [3]

Hozirgi kunda boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatiga ko‘ra didaktik o‘yinlar orqali, evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Didaktik o‘yinli metodlar o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarsih va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bular o‘quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma‘naviy, ma‘rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Usul va metodlar o‘quv jarayoni sifatini hal qilib beradi. O‘quvchining ongli va kuchli o‘zlashtirishida, faollikning rivojlanishiga ham ta‘sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. O‘qituvchining metod va usullarni to‘g‘ri tanlay olishi darsda o‘tiladigan mavzuga bog‘liqdir. Yangi mavzu bayoni uchun bir metod qo‘llansa, uni mustahkamlash, umumlashtirish uchun yana bir metod qo‘llaniladi, darsni samarali o‘tkazish uchun o‘tiladigan metodlar puxta o‘ylanishni talab qiladi.

“Darhaqiqat, o‘quvchi ma‘naviyatiga, axloqiga ta‘sir qilish, komil inson qilib tarbiyalash uchun badiiy adabiyotni o‘qib berishning, o‘rgatishning o‘zi kamlik qiladi. Bu yo‘lda shaxsiy namuna, o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llay olish ham katta ahamiyat kasb etadi”[4]

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon o'qituvchidan ijodkorlikni, erkin fikrlilikni, yangi texnologiyalar asosida ish olib borishlikni talab qiladi, unda pedagogik tajribaning yuqori bo'lishi, muloqot madaniyati, nutq madaniyatining shakllangan bo'lishi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining mavjudligi, bilim, ko'nikma va malakaning namoyon bo'lishi, uning pedagogik mahoratga ega ekanligini ko'rsatadi. Darsning samaradorligi o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir. Dars mashg'ulotlari vaqtida har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 1.Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent -“O'zbekiston”-2016. 56 b
2. 2.A.Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”. “O'qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1992 yil, 22-23-betlar;
3. 2-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligi 2-qism 120 b.Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun. Toshkent – 2021
4. 4.Siddiqova Sh. „Yosh avlod ma'naviy kamolotida badiiy adabiyotning o'rni” „Izlanish samaralari” 2019-y. 461-bet
5. 5.Nargiza Rustamovna Umarova,Shohsanam Yigitaliyeva Isog'ali qizi.(2021) CONCEPT AS A BASIC OF COGNITIVE LINGUISTICS.THEORETICAL &APPLIED SCIENCE.Учредители Теоретическая и прикладная наука (9), 701-704
6. UN Rustamovna, Y Shohsanam THE REALIZATION OF THE
7. CONCEPT OF GOODNESS IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS .Web of Scientist:International Scientife Research Journal,3(7),148-152.